

O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Mo'minova Dilnoza Muhiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistanti

E-mail: dilnozamominova84@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korrupsiya illati global muammolardan biri ekanligi, mazkur illat har qanday davlat va jamiyat rivojiga salbiy ta'sir qilishi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib kelishi haqida yoritilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining asosiy maqsadi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan korrupsiya qarshi kurashish chora-tadbirlarining mazmuni qisqacha yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat siyosati, davlat dasturi, poraxo'rlik.*

KIRISH

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga dunyoning deyarli har bir davlatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, korrupsiya davlatning turli sohalariga, xususan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining maqsadi – korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq tahdidlardan himoyalanihini ta'minlashdan iborat. Bu siyosat davlatning korrupsiyaga qarshi qaratilgan, qabul qilingan turli qonunlari, qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati – bu davlatning korrupsiyaning oldini olish, u paydo bo'lganda uni tugatish va cheklash borasidagi sa'y-harakatlari va aniq chora-tadbirlar majmuidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Parlamentga murojaatida bu illatga qarshi kurashish lozimligini aytib, “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak” - deb ta'kidladilar[1].

Darhaqiqat korrupsiya, xuddi temirdagi zang kabi davlat boshqaruvi tizimini yemiradi, unga putur yetkazadi, davlat xizmati va davlat xizmatchilariga salbiy munosabatni vujudga keltiradi, hokimiyatning obro'sizlanishiga sabab bo'ladi, binobarin, davlatchilik g'oyasiga putur yetkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" [2].

TADQIQOT NATIJALARI

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Korrupsiyaning adolatga zid ekanligi shunda namoyon bo'ladiki, u hal etilmagan ijtimoiy muammolarning murakkablashuviga, keskinlashuviga olib keladi. Zero u ayrim imtiyozlarni o'ziga nisbatan noqonuniy da'vo qiladi. Natijada, zo'rvonlik, ish sohasini yaxshi bilmaslik, mansabdorlarga ko'r-ko'rona itoat etish, rasmiyatchilik, sansolarlik, buyruqbozlik, ko'zbo'yamachilik kabi ish jarayonidagi illatlar soxta obro'ga intilish, takabburlik, qat'iyatsizlik, soxta dadillik, odamlarga bepisadlik, yolg'on ishlatish, sharoitga moslashish va ma'muriy buyruqbozlik kabi salbiy holatlarga olib keladi.

S.Buryanovning fikricha, soha mutaxassislari davlat boshqaruv organlarining "majburlov" huquqlarini amalga oshirish jarayonida, jumladan quyidagi omillar ham korrupsiyaga sabab bo'lishi mumkin deb hisoblanadi: mansabdor shaxslar tomonidan majburiy to'lovlarni undirishni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratining yo'qligi, jamiyatda "yashirin iqtisodiyot" va "uyushgan jinoyatchilik" kabi salbiy illatlar mavjudligi. Ushbu salbiy illatlarning oldini olib, O'zbekiston Respublikamizda korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borilmoqda [3].

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarini qabul qilish orqali amlaga oshirilmoqda. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'rida" gi qonunga asosan o'tgan davr mobaynida har ikki yilga mo'ljallangan 3 ta davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturi ijrosi doirasida:

1. O'zbekiston Respublikasining 9 ta qonuni, prezidentning 2 ta farmoni va 4 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori loyihalari ishlab chiqildi;

2. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibi yanada takomillashitirildi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilmoqda.

3. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar faoliyati tartibga solinib, byudjet qonunchiligini buzish xavfini tahlil qilish maqsadida "Elektron nazoratchi-taftishchi" dasturiy majmuasi yaratildi.

4. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy qilindi.

5. Davlat organlari faoliyatida korrupsiyaviy xavflarni baholash elektron tizimi ishga tushirildi. “E-Anticor.uz” elektron platformasida korrupsiyaviy xavflar baholanib, “Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri” yuritilmoqda[4].

Olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020-yil 4-fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo‘lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir. Bugungi kunda:

- Ombudsmanning “10-96” ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;

- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to‘g‘risidagi murojaatlari tahlil qilib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlarida muhokama qilinadi;

- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo‘l- yo‘riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo‘yiladigan asosiy majburiyatlar, ta‘qiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi [5].

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab korrupsiya darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda, xususan, Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya va AQSh kabi davlatlarda “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek, sudyalarning xatti-harakat meyorlarini tartibga soluvchi Axloq kodeksi borligini ko‘rishimiz mumkin.

E’tiborli jihati shundan iboratki, ushbu normalar bilan davlat lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xizmatchilarning olishi mumkin bo‘lgan sovg‘a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, Fransiyada mazkur miqdor 35 yevro, AQShda 20 AQSh dollari, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada esa 3000 rubl etib belgilangan. Singapurda esa, davlat boshqaruvida faoliyat ko‘rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog‘ozlar kabi to‘lovlarni olishi taqiqlanadi. Kanadada mansabdor shaxslarning pul ko‘rinishidagi sovg‘alar qabul qilishi qat’iyan man etiladi [6].

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo‘lib, unga ko‘ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg‘alar olishi taqiqlanadi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg‘alar vazirlikka o‘tkaziladigan tartib joriy qilingan.

XULOSA

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishda quyidagi taklif va mulohazalarga alohida ahamiyat berish zarur:

Birinchidan, korrupsiyaga qarshi saylov tizimi orqali kurashish – demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullardan biri keying saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, bu bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yaratish hamda korrupsiyaga qarshi kurashda aholining huquqiy savodxonlik masalasini oshirishda maktablarda, oliy ta'lim va undan keyin, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash tizimi uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda ma'naviyat darslarini keng yo'lga qo'yish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish;

Uchinchidan, davlat xizmatchisining axloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish, davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimiga tayinlash va yuqori lavozimlarda ko'tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tartibini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, ta'qiqlar, rag'batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro'yxatini shakllantirish zarurligi;

To'rtinchidan, taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart hisoblanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ular samarali vositadir;

Beshinchidan, har bir sohada parlament nazoratini takomillashtirish va davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2020 yil, 25 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. <https://www.press.uz/>. – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati rasmiy web-sayti.

3. Бурьянов С. Системная коррупция в области отношений государства. “Право и жизнь”, июнь 2003 г.

4. <https://anticorruption.uz>>

5. B.Ismoilov., U.Abduraxmonov. Ta'sirchan parlament nazorati korrupsiyaga qarshi kurashishda qay darajada muhim? <https://uza.uz/oz.posts/>.

6. B.Ismoilov., F.Yo'ldashov. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston mavqeyini yuksaltirishning muhim jihatlari. <https://uza.uz/oz.posts/>.